

NAVOIY GʻAZALIGA MUXAMMAS

Olami foniya kulfatsiz makone topmadim,
Gʻayri andihu gʻamu ohi figʻone topmadim,
Bir anisi shodu gʻam shirin zabone topmadim,
Mehr koʻp koʻrguzdum, ammo mehribone topmadim,
Jon base qildim fido, oromi jone topmadim.

Dahr aro yolgʻuz oʻzumdek xoksore koʻrmadim,
Bekasu beyoru begʻamxoru xore koʻrmadim,
Bir xazoni noumidi navbahore koʻrmadim,
Gʻam bila jonimgʻa yettim, gʻangusore koʻrmadim,
Hajr ila dilsoʻxta boʻldum, dilsitone topmadim.

Kim koʻrubdur men kibi rasvoya davron bagʻri qon,
Volau shaydo erur aqlim ani koʻrgan zamon,
Sarf boʻldi xizmatida garchi joni notavon,
Ishq aro yuz ming malomat oʻqigʻa boʻldum nishon,
Bir kamon obruda tuzlukdin nishone topmadim.

Ohi dard oludim uchun ravnaqi ishqim ayon,
Subhi iqbolim erur idbor shomigʻa nihon,
Bormu yoʻq gulzori olam ichra mandek bogʻbon,
Koʻnglum ichra sarv oʻqdur gʻuncha paykon, gul tikon,
Dahr bogʻi ichra mundoq gulsitone topmadim.

Fahmigʻa loyiq amal qilgʻuchi olim koʻrmadim,
Koʻrdum, ammo tabʻini bir soʻzda solim koʻrmadim,
Ey koʻngul sendin ba juz ranji muloyim koʻrmadim,
Husn mulki ichra sendek shohi zolim koʻrmadim,
Ishq koʻyida oʻzumdek notavone topmadim.

Toki har devoni tahrir ayladi gʻam qissasin,
Darj qildi daftari koʻnglida bobi gʻussasin,
Garchi koʻrmay qolmisham ushshoq jismi jussasin,
Koʻp oʻqudum Vomiqu Farhodu Majnun qissasin,
Oʻz soʻzumdin bulʻajabroq dostone topmadim.

Obidi sargashtai mahjur dogʻi anjuman,
Bir duogoʻyi haqiri sokini baytul-hazan,
Yetmasun agʻyordin dildor koʻngliga suxan,

Ul amon ichinda bo'lsun, ey Navoiy, garchi man,
Bir zamon ishqida mehnatdin amone topmadim.